



Ashtarxoniylar sulolasi davlat boshqaruvi

Rajabov Alisher Shavkatovich

Buxoro davlat Pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti

Ruzimurodova Charos

Tarix ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ashtarxoniylar sulolasi davlat boshqaruvi hukmdorlar shajarasi ular tomonidan qilingan ishlar yer egaligi harbiy boshqaruvi soliq islohotlari haqida keltirilib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Ashtarxoniylar, Imomqulixon Vali Muhammad Abbos I, parokandalik Abdulazizxon Subxonqulixon oliy davlat lavozimlari qishloq xo'jaligi, shaharlar hunarmandchilik, savdo.

Ashtarxoniylar sulolasi kelib chiqish tarixini aytadigan bo'lsak, ular chingiziylar avlodidan bo'lib XV asrning 80-yillaridan boshlab Astraxanda hukmronlik qilganlar. XVI asr o'rtalarida Astraxan Ivan Grozniy tomonidan bosib olingach sulola hukmdori Yormuhammad Sulton o'z yaqinlari bilan Buxoroga keladi. Buxoro hukmdori Iskandar Sulton Yormuhammad hamda uning oila a'zolarini yaxshi kutib oladi va do'stona munosabatlar o'rnatadi.



Oradan ko'p o'tmay Yormuhammad o'g'li Jonibek Sultonni Iskandarxonning qizi Zuhrobegimga uylantirdi. Jonibek Sulton Zuhrobegimdan uch o'g'il -Din Muhammad Boqi Muhammad Vali Muhammad tug'ildi. Davlat boshqaruvi haqida aytadigan bo'lsak birinchi bo'lib taxtga Jonibek Sultonni taklif qiladilar lekin u o'g'li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. Obivard hokimi Dinmuhammad Buxoroga kelishda qizilboshlilar bilan bo'lgan jangda halok bo'ladi. Shundan keyin Boqimuhammad hokimiyatga taklif etiladi. Bu paytda Samarqand hokimi bo'lgan Boqimuhammad taxtga o'tiradi. (1601-1605) Shu tariqa Movarounnahrda tarixiy manbalarda Ashtarxoniylar yoki Joniylar deb nom olgan va bir yarim asr hokimiyat tepasida bo'lgan sulola hukmronligi boshlandi.

Ilk davrda pul muomalasidagi tangalar Jonibek Sulton nomidan zarb etilgan bo'lsada amalda hokimiyatni Boqimuhammad boshqardi. U mamlakatdagi tarqoqlikka barham berishga harakat qilib avvalo Xorazmni mamlakatga qo'shib oladi . Boqimuhammad mamlakat ichki ishlariga ham alohida e'tibor qaratib davlat boshqaruvini tartibga solishga harakat qildi. Boqimuhammad vafot etgach taxtga uning ukasi Balx hokimi Valimuhammad (1605-1611) o'tiradi. Shuningdek keyingi hukmdorlar :

Imomqulixon, Nodirmuhammad Abdulazizxon Subxonqulixon ,Ubaydullaxon, Abulfayzxon, Abdulmo'min , Ubaydullaxon II , va Sherg'ozixon . Undan keyin Muhammad Rahimbiy 1756 yil dekabrda rasman Buxoro xoni deb e'lon qilinadi. Hokimiyat mang'itlar sulolasi qo'liga o'tgach shu davrdan boshlab Buxoro xonligi amirlik deb atala boshlandi

Davlat boshqaruvi va ma'muriy boshqaruv. Ashtarxoniylarning davlat boshqaruvi Shayboniylar davlatidan uncha ham farq qilmagan. Manbalarning ma'lumot berishicha XVII -XVIII asrning birinchi yarmi davlat boshqaruvida hokimiyat markazda ham viloyatlarda ham asosan bir idora-Dargohda mujassamlashib borgan. Bu davrda ham Xon rasman oliy hokimiyat boshlig'i bo'lib davlatdagi ichki va tashqi siyosatga bog'liq barcha masalalar uning ixtiyori bilan hal etilgan. Azamat Ziyo tadqiqotlariga ko'ra Otaliqning vazifasi XVI asrda asosan joylardagi boshqaruv tizimi bilan bog'liq bo'lsa, ashtarxoniylar davrida



ayniqsa Abdulazizxondan boshlab otaliqning markazdagi mavqeyi kuchaya boshladi. Rasmiy darajadagi davlat boshqaruvi ikki bosqichli bo'lib- Markaziy va Mahalliy boshqaruv tizimiga ega edi. Bu davrdagi boshqaruvda dunyoviy lavozimdagi amaldorlar bilan bir qatorda Diniy lavozimdagi amaldorlarning ham mavqeyi baland bo'lgan. Boshqaruv tizimida yirik din peshvolari Xojalar va diniy mansab egalari bo'lmish Shayxulislom, sadr, qozi kalon va boshqalar ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Buxoro xonligidagi huquqiy masalalarni hal etishda Muftiyning o'rni alohida edi. Muftiy fiqh va hadisni juda yaxshi biladigan qonumshunos bo'lishi lozim edi. Ashtarxoniylar davriga kelib Buxoro xonligi hududlari keskin qisqarib ketdi. XVIII asr boshlariga oid manbalarda xonlikka bo'ysunuvchi 6 ta viloyat: Buxoro, Samarqand, Sagaraj, O'ratepa, Shaxrisabz va Xuzor tilga olinadi. Imomqulixon hukmronligi davrida Hisor, Turkiston, Farg'ona va Balx viloyatlari vaqtinchalik qayta birlashtirilgan bo'lsada, Abulfayzxon davriga kelib Xiva va Qo'qon xonliklari alohida davg'at edi. Mavjud manbalarda Buxoro xonligi bo'ysunuvchi viloyatlar o'rtasidagi aniq ma'muriy chegaralar haqida ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Ko'pgina viloyatlar, xususan Hisor, Shaxrisabz, Farg'ona amalda yarim mustaqil boshqarilib Buxoroga nomigagina tobe hisoblangan. Avvalgi davrda bo'lganidek, ashtarxoniylar davlati viloyatlar, tumanlar va boshqa ma'muriy birliklarga bo'lingan. Ashtarxoniylar davrida ham davom etgan siyosiy parokandalik urushlar va o'zaro kurashlar mamlakat iqtisodiyotining asosi bo'lgan qishloq xo'jaligiga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Siyosiy beqarorlik va o'zaro urushlar davom etib turgan og'ir sharoitda ham dehqonlar o'z xo'jaliklarini davom ettirishga harakat qilganlar. Buxoro xonligining asosiy dehqonchilik hududi Zarafshon vohasi edi. So'nggi o'rta asrlar mualliflari boshqa viloyatlarda ham ekinlar va bog'-rog'lar mavjudligi haqida ma'lumot beradilar. Misol uchun Farg'onaning "ajoyib bog'lari va dalalari" Qarshining "sug'oriladigan yerlari" Toshkent vohasining "tog'li g'allakor tumanlari" Termizning "yaxshi qovunlari va g'allasi" Shaxrisabzning "yaxshi hosil beruvchi yerlari" haqida ma'lumotlar bor. Bu davrda hozirgi O'zbekiston hududlarida poliz ekinlari yetishtirish ancha rivojlangan. Bu ekinlar orasida



qovun ayniqsa ko‘p yetishtirilgan." Movarounnahrning hech qayerida Buxorodagidek ko‘p va xo‘p qovun bo‘lmaydi. Farg‘ona viloyatida , Axsida Buxoronikidan ham shirinroq miri timuriy navli qovun bo‘lsada Buxoroda qovunlarning navi ko‘p ular ham juda shirin"¹1614-1615 yillarda Imomqulixon buyrug‘i bilan Qashqadaryodan Qarshi cho‘liga kanal chiqarilib natijada bir qator qishloq va qarovsiz yerlar obod qilinganini bilamiz. 1633-1634 yillarda Qo‘shqo‘rg‘onda ham uning buyrug‘i bilan kanal qazilgani ma’lum.² Hunarmandchilikda ham an’anaviy tarmoqlar: zargarlik ,temirchilik kulolchilik, to‘quvchilik, qurolsozlik kabi sohalar rivoj topgan.Tayyor mahsulotlar ichki va tashqi bozorda sotilgan.

Shunday qilib biz ashtarxoniylar davridagi davlatimizning ijtimoiy-siyosiy ahvolini ko‘rib chiqdik. Bir so‘z bilan aytganda qanchalik katta iqtisodiy madaniy ma’naviy shart - sharoitlarga ega bo‘linmasin markaziy hokimiyatning zaiflashishi mahalliychilik siyosiy boshboshdoqlik mamlakat va davlatning boshqa barcha qudratlarini kesib yuborgan.

¹. Zahiriddin Muhammad Bobur " Boburnoma " asari

². " Tarixi Roqimiy" O‘zb Fanlar Akademiyasi QJ qo‘lyozmasi . Raqami 77/11 249 a 6 varoqlar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.J.Eshov, A.A Odilov " O‘zbekiston tarixi" Toshkent-2014

2. Azamat Ziyo " Sharq" Toshkent-2001